



MARD VA AZMU-SHIJOATLI HARBIYLAR ARMIYANING QUDRATLI
KUCHI

Axmedov Baxromjon Mardiyevich

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Taktika kafedrasida katta
o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan noyob hujjat - 2021-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasining mamlakatimiz taraqqiyotini barcha soha va tarmoqlarda yangi bosqichga ko'tarish borasidagi o'rni va ahamiyati atroflicha yoritib berilgan, biz uchun eng oliy qadriyat bo'lgan inson huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlangan, erkin va farovon jamiyat barpo etish yuzasidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar tahlil etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tilishi kadrlarni boshqarish sohasida tub o'zgarishlar qilinishini talab qiladi va korxona, tashkilotlarning samarali ishlashini unda mavjud bo'lgan xodimlarni ta'minlaydi.

Shu jihatdan hozirgi vaqtda malakali xodimlarni shakllantirishga erishish muhim ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbariyati mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini yuksak darajada boshqarishni tashkil etilishiga katta e'tibor qaratadi, rahbar kadrlardan boshqaruv nazariyasini chuqur o'rganishni, zamonaviy ish usullarini egallashni, ishga ijodiy yondashishni va tashabbuskor bo'lishni talab qiladi [4,3].

Zamonaviy boshqaruv xodimi o'z ishining mohir ustasi bo'lib, tashkilotchilik, yuqori madaniyatlilik, keng qamrovli fikrlash, yangiliklarni tez o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llash kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Bu talablar Qurolli Kuchlarning har bir boshliq va komandirlariga to'raligicha taalluqlidir. Har bir harbiy boshliq bilimdonlik, yangiliklarni teran his etish, murakkab masalalarni hal qilishda javobgarlikni o'z zimmasiga ola bilish, tashabbuskorlikni o'z vaqtida qullab-quvvatlash, shaxsiy tarkib imkoniyatlarini safarbar qila olish kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak. Qo'shinlarni boshqarish tizimi har bir harbiy rahbarga qisqa vaqt ichida, axloqiy-ruhiy va jismoniy og'ir vaziyatlarda teran fikrlash va harakat qila olish qobiliyatini yuklaydi.

Boshqaruvning ruhiy qonuniyatlardan to'laroq foydalanish, qo'l ostidagi xizmatchilar tashabbusini rivojlantirish va undan foydalanish, qo'yilgan vazifalarga ijodiy yondashish bu faoliyatning samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan biridir.

Bu imkoniyatlarni bilish, o'z amaliy faoliyatida ulardan foydalanish haqida o'ylash, ruhiy asoslangan usullarni o'z faoliyatiga tatbiq etish qism, bo'linmalar shaxsiy tarkibini Vatanimizni himoya qilishga tayyorlash vazifasini hal qilishning muhim shartidir.

Har bir ofiser, Qurolli Kuchlarda qanday lavozimni egallashidan qat'iy nazar, tinchlik davrida ham, jangovar vaziyatda ham, boshqaruv faoliyati bilan doimo bog'liqdir. Faoliyatning bu turi jamiyat boshqaruvining bir qismi bo'lib, o'z xususiyatlariga ega va



boshqaruv vazifalarini bajarishda ofiserlardan nafaqat oliy ma'lumotga, balki yetarli darajadagi maxsus bilimlarga, nazariy tayyorgarlikka, ma'lum tajribaga ega bo'lishni talab etadi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida - Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri - "Ekonomist" jurnali O'zbekistonni 2019 yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat - "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi - deb ta'kidladilar.

O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bo'g'inlarida chuqur va keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda [1,2].

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaati. //Vatanparvar//, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish hbo'yicha Harakatlar strategiyas ito'g'risida» gi Farmoni.
3. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. T., Mehnat. 2000.
4. Rahimova D. N. Zamonaviy Menejment: Nazariya va amaliyot. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009.